

CHatGPT KABI GENERATIV SUN'IY INTELEKT TIZIMLARINING BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Davlatova Aziza Akmalovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)

Akmalovna116@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-6924-1422>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929654>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt dasturlarining (masalan, ChatGPT, Gemini) bolalar nutqiy va lingvistik rivojlanishiga ta'siri differentsial-yosh yondashuvi asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda 3–7 yoshdagi maktabgacha yosh davri bolalarning lingvistik, kognitiv hamda psixolingvistik xususiyatlari alohida ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ilovalari bolada passiv lug'atni boyitish, interaktiv ifodali nutqni oshirish kabi ijobiy imkoniyatlarni yaratadi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo muloqot yetishmasligi sababli nutq kechikishi va pragmatik nutq uzilish xavfi kuzatiladi. Maqola yakunida ota-onalar uchun sun'iy intellekt ilovalaridan xavfsiz va metodologik to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt(SI), chatpt va gemini, interfeys, bolalar nutqi, psixolingvistika, maktabgacha yosh, nutqiy kechikish, lingvodidaktika, ijobiy va salbiy ta'sir.

Zamonaviy raqamli globallashtirish asrida generativ sun'iy intellekt (Generative Artificial Intelligence - GAI) texnologiyalarining masalan, ChatGPT, Google geminilardan foydalanishning jadal o'sishi va ta'lim hamda kundalik muloqot jarayonlariga kirib kelishi inson va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shaklini tubdan o'zgartirdi. Xususan, ma'lumotni qayta ishlash va ma'lumot tahlili, til modellariga asoslangan ushbu tizimlar faqat axborot qidirish vositasi bo'lib qolmay, balki interaktiv suhbatdosh shuningdek, til o'rgatuvchi sub'ekt funksiyasini ham faol bajarmoqda. Bu esa psixolingvistika, rivojlanish neyropsixologiyasi hamda lingvodidaktika hatto tilshunoslik sohaları oldida yangi hamda dolzarb tadqiqot muammolarini ko'ndalang qilmoqda.

Bolalarning nutqiy rivojlanishi bu faqatgina leksik va grammatik birliklarni o'zlashtirish emas, balki murakkab kognitiv, emotsional va ijtimoiy-pragmatik jarayon hamdir. Psixolingvistik nuqtai nazardan, nutq miya va atrof-muhit o'rtasidagi interfaol aloqa va insonlararo ijtimoiy muloqot asosida shakllanadi. Biroq, tizimli va kodli sun'iy intellekt tizimlarining ta'siri barcha yosh guruhları uchun ya'ni kichik bolalardan tortib, katta yoshlilargacha bir xil xarakterga ega emas. 3-7 yoshdagi maktabgacha yoshli bolalar uchun og'zaki verbal muloqot asosan senso-motor va noverbal signallar bilan bog'liq bo'lsa, keyingi 8-14 yoshli maktab yoshidagi o'quvchilarda asosan bilim olish, diqqat, akademik yozuv, murakkab sintaksis hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga qaratilgan bo'ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt tizimlarining bolalar nutqiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlarini differentsial-yosh yondashuvi asosida 3-7 yosh guruhları kesimida ilmiy tahlil qilish hamda ushbu texnologiyalardan lingvodidaktik, tilshunoslik va psixopedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish bo'yicha metodologik xulosalar berishdan iborat.

Maktabgacha yosh davri bolalarda jonli nutqiy muloqot modeli(shakli) shakllanadigan eng asosiy va fundamental bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda miya ma'lumotlarni qabul qilishi yuqori darajada bo'lib, bola so'zlarni faqat akustik signallar orqali emas, shu bilan birga muloqotdagi sherik suhbatdoshning yuz ifodasi (mimika), tana tili (jestlar) va artikulyatsion harakatlarini vizual kuzatish orqali o'zlashtiradi hamda nutqda munosabat bildirish, noverbal muloqot tana harakatlari, kulish, xarxasha, yig'lash va yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari orqali javob qaytaradi.

Sun'iy intellekt dasturlarining bolalar nutqi va muloqot qobiliyatlariga ta'siri bugungi kunda tilshunoslik, pedagogika va neyropsixologiya sohalarida eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Bu ta'sirlar ijobiy (rivojlantiruvchi) va salbiy guruhlarga bo'linadi:

Ijobiy ta'sirlarni ko'rib o'tsak:

1. Tizimlashtirilgan sun'iy intellekt dasturlari bolalar bilan cheklanmagan darajadagi sabr va moslashuvchanlik bilan odamlardan ko'ra ko'proq muloqot qila oladi. Bola undan o'zi tushunmagan so'zni so'raganda, sun'iy intellekt uni savoliga ko'ra bolaning yoshiga mos oddiy iboralar bilan tushuntirib beradi. Bu dasturlardan chat gpt, gemini bolalar bilan real vaqt rejimida dialoglar qurish, ularning savollariga yoshiga mos soddalashtirilgan tilda javob berish va birgalikda ertaklar yaratish imkoniyatiga ega. Bu

bolalarning konseptual tushunchalarini kengaytiradi va passiv lug‘at boyligini oshishida samarali xizmat qiladi[4. 2023: P.37-49.].

2.Bolada fonetik va leksik baza shakllanishi: Sun‘iy intellekt dasturlarining ovoqli funksiyalari masalan, ovoqli interfeysga ega Chatgpt ilovalari orqali bola yangi so‘zlarni va to‘g‘ri talaffuzni takrorlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa bola bilan yana nutqiy muloqotning ko‘proq va uzoqroq olib borilishiga xizmat qiladi.

3.Bola nutqida fikrlari, voqealarni ifodalash shakllanishi: Bola sun‘iy intellekt ilovasi bilan birgalikda ertaklar va kichik hikoyalar to‘qishi, ularni eshitishi va hatto ularni mustaqil topishi mumkin. Bunga misol sifatida google interfeysida ovoqli qidiruv vazifasida sun‘iy intellekt yuklangani va u orqali bolalar o‘zlari yoqtirgan multfilm, ovoqli video yoki musiqalarni osongina topa oladilar. Bu bolaning tasavvurini va matn mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda tushunish ko‘nikmasini oshiradi. Bolada nutqiy murojaat buyruq berish munosabatini shakllantiradi[5. 2023:P. 2137–2140.].

Salbiy ta‘sirilar:

1.Bolada pragmatik nutq va artikulyatsiyaning ortda qolishi: 3-5 yoshli bolalar so‘zlarni faqat eshitib emas, so‘zlovchining lab harakati (artikulyatsiya) va mimikasi, tana harakatlarini ko‘rib nutqiga o‘zlashtiradi[3. 2019:P.244-250.]. Sun‘iy intellekt orqali muloqotda bola bilan shaxslararo jonli vizual muloqot zanjiri uziladi. Bola hechqanday muloqotdagi noverbal tajribani egallolmaydi.

2.Ekrandagi animatsiyalar va sun‘iy intellekt bog‘liqligi sababli bolada nutq kechikishi: Jonli muloqot o‘rnini sun‘iy intellekt egallashi bolalarda nutq rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin[2. 2023: P. 115-125.]. Ekranga mukkasidan ketish bolada nutqiy talaffuzlarni chegaralanishi, muloqotdan uzilish hamda ko‘z kasalliklari, fikrlash rivojlanishini cheklashiga olib kelishi mumkin.

3. Bola nutqida noverbal signallar yetishmovchiligi: Bola suhbatdoshining xafa bo‘lishi, xursandchiligi yoki kinoyasi, do‘qi, xafaligini tushunish tajribasidan mahrum bo‘ladi[3. 2019:P.244-250.].

4. Ifodali nutq kechikishi: Raqamli dasturlar va sun‘iy intellekt bilan haddan ortiq ko‘p foydalanish hamda u SI bilan nazoratsiz muloqot ota-ona va bola o‘rtasidagi “tabiiy muloqot” zanjirini uzadi. Bu esa nutq rivojlanishida 3-5 yoshli bolalarda ekspressiv nutq kechikishining asosiy sabablaridan biriga aylanib bormoqda[1.2021:P.250-252.].

Ushbu ta‘silardan kelib chiqib bola nutqi rivojlanishida shaxslararo jonli muloqot almashish zarurligi va muloqot jarayonida bola bilan o‘zaro individual tarzda fikr almashish muhimligiga guvoh bo‘lamiz.

3-5 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlanishida ijobiy va salbiy ta‘sirilar va tavsiyalar jadvali.

Rivojlanish ko‘rsatkichi	Maktabgacha yosh (3–7 yosh)
<i>Nutqiy diqqat</i>	Artikulyatsiya, fonetika, emotsional va jonli muloqot
<i>Asosiy sun‘iy intellekt salbiy ta‘sirilar</i>	Nutq kechikishi, pragmatik va noverbal muloqot zayiflashi
<i>Sun‘iy intellekt yaratuvchi imkoniyatlari</i>	Ertaklar orqali tasavvur va passiv lug‘atni oshirish
<i>Tavsiya</i>	Juda cheklangan (faqat ota-ona nazorati va insoniy muloqot bilan)

Xulosa qilib aytganda, sun‘iy intellekt bolalar nutqini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratadigan innovatsion vosita hisoblanibgina qolmay, uning samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki undan qanday lisoniy, pedagogik maqsadlarda, qanday metodika asosida va qanday nazorat ostida foydalanilishiga bog‘liqlikni tashkil etadi. Shu bois bugungi kunda sun‘iy intellekt bolalar nutqiy rivojlanishida insonlararo muloqotni o‘rnini bosuvchi yoki almashtiruvchi emas, balki uni to‘ldiruvchi, ruvojlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi lisoniy, didaktik vosita sifatida qo‘llanilishi eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hirsh-Pasek, K., & Golinkoff, R. M. (2021). Becoming brilliant: What science tells us about raising successful children. American psychological association. P. 250-252.

2. Kasneci, E., et al. (2023). ChatGPT for education: Educational applications and challenges in early assessment. *Educational technology & Society*, 26(2), 115–125.
3. Madigan, S., Browne, D., Racine, N., Mori, C., & Tough, S. (2019). Association between screen time and children’s performance on a developmental screening test. *JAMA Pediatrics*, 173(3), 244–250.
4. OECD. *Empowering young children in the digital age*. Paris: OECD Publishing, 2023. – P. 37–49.
5. Zhai, X. (2023). ChatGPT for next-generation education: Opportunities and challenges. *Journal of chemical education*, 100(6), 2137–2140.